



XITOIY TILIDA 助(zhù) IYEROGILIFI QATNASHGAN IBORALAR TAHLILI

Xo'janberdiyeva Nargiza Utkir qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs talabasi

[nxujanberdiyeva@gmail.com](mailto:nxujanberdiyeva@gmail.com)

Artikova Z.Z

Ilmiy rahbar: PhD

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xitoy tilidagi iboralar, ularning kelib chiqish tarixi hamda manbalari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, aynan 助(zhu) iyeroglifi ishtirok etgan bir qator iboralar misol tariqasida keltiriladi. Ushbu iboralar semantik va tuzilish jihatdan tahlil qilinadi. Xitoy tili uzoq tarixga ega bo'lgan eng qadimiy tillardan biri bo'lib, bu uning lug'at boyligida iboralarning ko'pligi bilan izohlanadi. Ma'lumki, xitoy xalqi nutqda iboralardan juda faol foydalanadi, bu esa nutqning yanada obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Xitoy tilidagi iboralar tizimi o'zining o'ziga xosligi va qadimiyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Maqolada tanlangan 助 iyeroglifi "yordam berish", "ko'maklashish" ma'nolarini ifodalaydi va u qatnashgan ko'plab iboralar mavjud. Ushbu maqola xitoy tilini o'rganayotgan yoshlar hamda tilshunoslar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ibora, xitoy tilining o'ziga xosligi, yordam, ta'rif, qadriyat, ezigulik

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются китайские фразеологизмы, их происхождение и источники. Кроме того, приводится ряд примеров выражений с иероглифом 助(zhu). Эти выражения анализируются с семантической и структурной точек зрения. Китайский язык является одним из древнейших языков с богатой историей, что объясняет большое количество фразеологизмов в его лексическом составе. Известно, что китайский народ активно использует устойчивые выражения в речи, что делает её более образной и выразительной. Система китайских фразеологизмов отличается своей самобытностью и древностью по сравнению с другими языками.

Выбранный в статье иероглиф 助 означает «помогать», «оказывать содействие», и с его участием существует множество фразеологизмов. Данная статья может служить полезным источником для изучающих китайский язык и специалистов в области языкознания.

**Ключевые слова:** идиома, уникальность китайского языка, помощь, определение, ценность, добро.

**Annotation:** This article provides information about Chinese idioms, their origins, and sources. It also presents several examples of expressions that include the character 助(zhu). These expressions are analyzed from both semantic and structural perspectives. The Chinese language is one of the most ancient languages with a long history, which explains the richness of idioms in its vocabulary. It is well known that Chinese people actively use idiomatic



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



*expressions in speech, making it more vivid and expressive. The system of Chinese idioms stands out from other languages due to its uniqueness and historical depth. The character 助 selected in this article conveys the meanings “to help” and “to assist,” and there are many idioms that include this character. This article can serve as a useful resource for students learning Chinese as well as for linguists.*

**Key words:** *idiom, uniqueness of Chinese language, help, definition, value, goodness.*

Frazeologizmlar, avvalo, millatning urf-odatlari va an'analarini o'zida mujassam etadi. Hech bir til frazeologik birliklarsiz mavjud emas. Ular muayyan tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy boyligini aks ettirib, uning dunyoqarashi va o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababli har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish ham muhim, ham qiziqarli hisoblanadi. Frazeologiya — tilshunoslikning shunday bo'limiki, u boshqa bo'limlardan nutqqa tayyor holda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o'ziga xosligi hamda ma'no jihatidan turg'unligi bilan ajralib turadi. Uning asosiy muammolaridan biri frazeologizmlarni nutq jarayonida erkin hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlash va shu asosda ularni aniq belgilashdir. Frazeologiya tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri bo'lib, u leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya, morfologiya va grammatika kabi bo'limlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Iboralarga hozirgacha turli olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, natijada ularning o'ndan ortiq izohi mavjud. Umuman olganda, ayrim olimlar iboralarga asosan lug'aviy jihatdan yondashib, ularni “tayyor so'zlar” sifatida izohlaydi. Biroq ko'pchilik tadqiqotchilar bir nechta mezonlarga tayanadi. Bu mezonlarga tuzilish jihatidan turg'unlik, ma'noviy yaxlitlik, kitobiy uslubga xoslik, ko'pincha to'rt iyeroglifdan tashkil topganlik kabi xususiyatlar kiradi. Quyida keng tarqalgan ta'riflardan ayrimlari keltiriladi. Iboralar — insonlar tomonidan uzoq vaqt davomida qo'llanib kelinayotgan, ixcham va turg'un birikmalar yoki qisqa gaplardir. Xitoy tilidagi iboralarning aksariyati to'rt iyeroglifdan iborat bo'lib, odatda ma'lum bir tarixiy manbaga ega. Ba'zi iboralarni so'zma-so'z tushunish qiyinchilik tug'dirmaydi, masalan, 小题大做 (“pashshadan fil yasash”), 后来居上 (“keyin kelganlarning oldingilardan o'zib ketishi”). Boshqa ayrim iboralarni anglash uchun esa ularning kelib chiqish tarixi yoki ularga oid rivoyatlarni bilish zarur, masalan, 朝三暮四, 杯弓蛇影 va boshqalar. Yana bir ta'rifga ko'ra, iboralar — uzoq vaqt davomida qo'llanib kelayotgan, to'liq ma'noga ega, barqaror tuzilishli, ixcham shaklli hamda umumiy iste'molda qoliplashgan qisqa gaplardir. Xitoy tili qadimiy va murakkab tizimga ega bo'lib, unda iboralar alohida o'rin tutadi. Har bir iyeroglif o'ziga xos semantik qiymatga ega bo'lib, tilning mazmuniy va strukturaviy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada “助” (zhù) iyeroglifi ishtirok etgan iboralar semantik jihatdan tahlil qilinadi. “助” iyeroglifi asosan “yordam berish”, “ko'maklashish” ma'nolarini ifodalaydi va ko'plab iboralarda uchraydi. Maqolaning asosiy maqsadi — mazkur iyeroglif ishtirokidagi iboralarni aniqlash, ulardan ayrimlarini misol sifatida tanlab olib, ularni semantik hamda tuzilish jihatdan tahlil qilishdan iborat.



## 1. 助

### iyeroglifning ma'nosi va semantik xususiyatlari

“助” iyeroglifi Xitoy tilida “yordam berish”, “ko‘maklashish” degan ma‘noni anglatadi. U ko‘pincha fe‘l sifatida ishlatiladi, biroq ba‘zi iboralarda uning ma‘nosi yanada kengayib, turli vazifalarni bajaradi. Semantik jihatdan “助” ko‘maklashish jarayonini, qo‘llab-quvvatlashni ifodalaydi.

**Yordam berish:** Asosiy ma‘nosi ko‘mak berish va yordam ko‘rsatish.

**Qo‘llab-quvvatlash:** Bu ma‘no ko‘proq qiyin vaziyatda yordam berish, qo‘llab-quvvatlash jarayonini anglatadi.

**Tashkiliy yordam:** Ba‘zi birikmalarda “助” tizimli, rasmiy yordamni bildiradi.

政府提供资金支助困难家庭。

Zhèngfǔ tígōng zījīn zhīzhù kùnnán jiātíng.

Hukumat qiyin ahvoldagi oilalarga moliyaviy yordam ko‘rsatadi..

## 2. 助 qatnashgan asosiy birikmalar va ularning semantik tahlili

Quyida “助” iyeroglifi ishtirokidagi keng tarqalgan birikmalar va ularning semantik tahlili keltiriladi:

助手 (zhùshǒu)

**Lug‘aviy ma‘no:** yordamchi.

**Semantik xususiyatlari:** Bu so‘z yordam beruvchi shaxsni bildiradi. Semantik jihatdan “助” yordam berish jarayonini, “手” esa inson faoliyatini ifodalaydi. Umumiy ma‘nosi – yordam beruvchi qo‘l, ya‘ni qo‘shimcha kuch.

帮助 (bāngzhù)

**Lug‘aviy ma‘no:** yordam berish.

**Semantik tahlil:** Bu so‘z ikki iyeroglifdan tashkil topgan bo‘lib, “帮” yordam berish, qo‘llab-quvvatlash ma‘nosini bildiradi, “助” esa ko‘maklashishni anglatadi. Birgalikda ular yordam jarayonining kuchaytirilgan ifodasidir.

□支助 (zhīzhù)

**Lug‘aviy ma‘no:** moddiy yoki ma‘naviy yordam ko‘rsatish.

**Semantik xususiyatlari:** Bu esa ko‘proq rasmiy yoki huquqiy matnda ishlatiladi. “支” – qo‘llab-quvvatlash, “助” esa yordam berishni anglatadi.

□救助 (jiùzhù)

**Lug‘aviy ma‘no:** qutqarish, yordam berish.

**Semantik tahlil:** Bu so‘z favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatishni bildiradi. “救” – qutqarish, saqlash, “助” esa ko‘maklashishni bildiradi. Quyida xitoy tilida yordam ma‘nosini ifodalovchi bir qancha iboralarni xitoycha tavsifi bilan birgalikda ko‘rib chiqamiz.

1. 乐于助人 [lè yú zhù rén]



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ma’nosi: Boshqalarga yordam berishni yoqtirish, bu jarayondan xursand bo‘lish.

Misol: 他是一个乐于助人的人，总是帮助朋友。

Tā shì yīgè lè yú zhù rén de rén, zǒng shì bāngzhù péngyǒu.

U boshqalarga yordam berishni yoqtiradigan odam, doimo do‘stlariga yordam beradi.

2. 守望相助 [shǒu wàng xiāng zhù]

Ma’nosi: Qo‘shni qishloqlar bir-birini kuzatib, himoya qilish va yordam berish.

Misol: 为了对付来犯的敌人或意外的灾祸，邻近各村落互相警戒，互相援助。

Bosqinchi dushmanlar yoki kutilmagan ofatlarga qarshi turish uchun qo‘shni qishloqlar bir-biriga yordam beradi.

3. 助人为乐 [zhù rén wéi lè]

Ma’nosi: Boshqalarga yordam berish – baxt keltiradi.

Misol: 帮助人就是快乐。

Boshqalarga yordam berish – bu baxtdir.

4. 拔刀相助 [bá dāo xiāng zhù]

Ma’nosi: Adolatsizlikka duch kelganda, haqoratlangan tomonga yordam berish.

Misol: 拔出刀来，帮助被欺侮的人。

Adolatsizlikka duch kelgan odamni himoya qilish uchun qilgan yordam.

5. 解囊相助 [jiě náng xiāng zhù]

Ma’nosi: Boshqalarga mol-mulk bilan yordam berish, saxiylik bilan ko‘maklashish.

Misol: 拿出财物帮助别人。用来形容慷慨助人。

Pul yoki mol-mulkni boshqalarga berib yordam berish, saxiylikni ifodalaydi.

“助” (zhù) – bu xitoy tilida “yordam bermoq, ko‘maklashmoq” degan ma’noni bildiradi, lekin u ishtirok etgan iboralar doimo ijobiy ma’noga ega emas — u yaxshi niyatda shu bilan birga yomonlik niyatida, yominlarga yordam ma’nosida ham bo‘lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 《现代汉语词典》，北京：商务印书馆，2012年。

2. 《新编现代汉语》，上海：复旦大学出版社，2006年。

3. 何平《汉语成语词典 双色版》，电子科技大学出版社，2004年。

4. 成语 - 维基百科，自由的百科全书

5. 中华成语大全，看完让你出口成章\_手机新浪网

6. 大 БКРС

7. [https://www.google.com/search?q=O%E2%80%98zbek+tilida+frazologiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&oq=O%E2%80%98zbek+tilida+frazologiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQIRigATI](https://www.google.com/search?q=O%E2%80%98zbek+tilida+frazologiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&oq=O%E2%80%98zbek+tilida+frazologiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQIRigATI)





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



HCAIQIRigATIHCAMQIRigAdIBBzcwOWowajeoAgiwAgHxBW45B\_ePHIA18  
QVuOQf3jx5QNQ&sourceid=chrome&ie=UTF-8

8. <https://cy.chacd.com/jl-tou-3019/>

9. 助人为乐类型的成语 - 百度文库

10. Мавлянова, У. Х. "ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ С ЧИСЛОВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.21 (2023): 130-134.

11. Sultanova, Lola Akmalovna. "Role Of Phonetic Borrowing In The Formation Of Medical Terms In The Chinese Language."

12. Каримов, Акрамджан. "Некоторые теоретические аспекты образования терминов китайского языка." *Востоковедения* 1.1 (2015): 14-23.

